23 25 01
01/20-01/09-17 raq.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
DEVONXONA

**"TASDIQLAYMAN"**
**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri**
**______________ B.Musayev**
**"______" yanvar 2023 yil**

**O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining**
**2023 yil I yarim yillik uchun**
**I SH R E J A S I**

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati |
|---|---|---|
| **I. Vazirlar Mahkamasining 2023 yil yarim yil uchun ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan** | | |
| **1. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari J.A.Qo'chqorov kotibiyatining 2023 yil I yarim yilligiga mo'ljallangan ish rejasi ijrosi yuzasidan** | | |
| 1. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" 2021 yil 3 dekabrdagi PF–29-son Farmonida byelgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash. | I yarim yillikda |
| 2. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 3 dekabrdagi PQ–31-son qarorida byelgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish. | I yarim yillikda |
| 3. | Aholining kambag'allik holatidan chiqishi uchun motivasiya berish, taqdim etiladigan moliyaviy va nomoliyaviy yordam hamda xizmatlarning natijadorligini oshirish, shuningdek, tomonlarning majburiyatlarini belgilash maqsadida "ijtimoiy shartnoma" mexanizmini amaliyotga joriy etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish. | mart |
| 4. | Yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda bandligiga ko'maklashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida. | 23 yanvar |
| 5. | Aholining tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning daromadlarini oshirish, shuningdek, "Bir hudud – bir mahsulot" tamoyili asosida aholiga uzoq muddatli ijaraga yer ajratish orqali bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to'g'risida | 6 mart |
| **2. "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturidagi 2023 yil I yarim yilligida bajarilishi lozim bo'lgan nazorat bandlari ijrosi yuzasidan** | | |
| 6. | **51-band.**<br>Fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning tashabbusli byudjet sohasidagi islohotlarda faolligini yanada oshirish, ushbu sohadagi qonunchilik normalari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.<br>*"Open budget" portalining texnik imkoniyatlarini qayta ko'rib chiqish orqali yanada takomillashtirish. Bunda:*<br>*"Open budget" portali orqali g'olib bo'lgan loyihalarda shaharsozlik sohasidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilganligi ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmini takomillashtirish, shu jumladan, qurilish ishlari bajarilgandan so'ng ob'yektlarni qabul qilishda bevosita jamoatchilik vakillari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari ishtirokini ta'minlash nazarda tutiladi.* | Iyun |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati |
|---|---|---|
| | *Amalga oshirish mexanizmi: Amaliy chora-tadbirlar* | |
| 7. | **257-band.**<br>Mehnat bozori infratuzilmasi va mehnat organlari faoliyatini raqamlashtirish.<br>*Bandlik xizmatlarini raqamlashtirish, bunda: ishsizlarlarning ishga joylashishiga ko'maklashish; nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan korxonalarga subsidiya ajratish; kasanachilik ish o'rni yaratgan tadbirkorga asbob-uskuna uchun subsidiya ajratish; olis hududlarda kasanachilik ish o'rni tashkil etgan tadbirkorga subsidiya ajratish kabi xizmat turlarini onlayn ish tartibiga o'tkazish.*<br>*Amalga oshirish mexanizmi: Amaliy chora-tadbirlar* | iyun |
| 8. | **259-band.**<br>Aholining kambag'allik holatidan chiqishi uchun motivasiya berish, taqdim etiladigan moliyaviy va nomoliyaviy yordam hamda xizmatlarning natijadorligini oshirish, shuningdek, tomonlarning majburiyatlarini belgilash maqsadida "ijtimoiy shartnoma" mexanizmini amaliyotga joriy etish.<br>*"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" AT orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchi oilalarga mas'uliyat belgilash uchun "ijtimoiy shartnoma" tizimini joriy etish.*<br>*Amalga oshirish mexanizmi: Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi* | mart |
| **3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va halqiga Murojaatnomasidan kelib chiquvchi vazifalar ijrosini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarning 2023 yil I yarim yillikda bajarilishi lozim bo'lgan nazorat bandlari ijrosi yuzasidan** | | |
| 9. | **46-band.**<br>Mahalla o'zining muammosini mustaqil hal etishi uchun "Mahalla byudjeti" tizimi joriy etiladi. Buning uchun yangi yilda 1 yanvardan boshlab mol-mulk va yer soliqlarining bir qismi mahallaning o'zida qoladi.<br>*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla byudjeti" tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasini ishlab chiqish.*<br>*Qaror loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini va Bosh vazir huzurida himoya qilish.*<br>*Amalga oshirish mexanizmi: Prezident qarori loyihasi* | yanvar |
| **4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-2022 yillarda respublika hududlariga tashriflari yakunlari bo'yicha tasdiqlangan bayonlardagi 2023 yil I yarim yilligida bajarilishi lozim bo'lgan nazorat bandlari ijrosi yuzasidan** | | |
| 10. | Xorazm viloyati *(23.03.2020 y. 17-2020, 53.1-band)* | 23 mart |
| 11. | Toshkent shahar *(Olmazor tumani, 22.04.2022 y. 29-2022, 40.1-band)* | 22 yanvar |
| 12. | Toshkent viloyati *(30.09.2022y. 67-2022. 11.1-band)* | 31 mart |
| **5. 2018-2022 yillarda tasdiqlangan "Yo'l xaritalari"dagi 2023 yil I yarim yillikda bajarilishi lozim bo'lgan nazorat bandlari ijrosi yuzasidan** | | |
| 13. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 noyabr kuni Rossiya Federasiyasiga tashrifi doirasida imzolangan hujjatlar ijrosini ta'minlash bo'yicha amaliy harakatlar rejalari "yo'l xaritalari"ni tasdiqlash to'g'risida. *(21.3, 22.2, 22.3, 23.2, 23.3, 24.3 bandlar)* | 2023 yil |
| 14. | Turkmaniston Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrifi (2021 yil 4-5 oktyabr) doirasida erishilgan kelishuvlar va imzolangan hujjatlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan "yo'l xaritalari"ni tasdiqlash to'g'risida. *(11.1 bandlar)* | Doimiy ravishda |
| 15. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tojikiston Respublikasiga rasmiy tashrifi (2021 yil 10-11 iyun) doirasida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni tasdiqlash to'g'risida. *(11.3, 11.4 bandlar)* | Har oyda |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati |
|---|---|---|
| | **6. Fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish va malakasini baxolab borish to‘g‘risida** | |
| 16. | Navoiy viloyati tajribasi asosida “Beshta muhim tashabbus”ning barcha yo‘nalishida yoshlarning bandligini ta’minlash va ularni kasb-hunarga qiziqtirish maqsadida 2023-yildan boshlab “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida kasb-hunar tanlovlarini tashkil etish | 2023-yil iyun |
| 17. | Xatirchi tumanida Xalq ta’limi vazirligi balansidagi sobiq Xatirchi uy-joy kommunal xo‘jaligi kasb-hunar kolleji hamda Navbahor tumanidagi Suv xo‘jaligi vazirligi balansidagi Navbahor suv xo‘jaligi va meliorasiya kolleji bino-inshootlarining bo‘sh turgan qismini nol qiymatda ijaraga olish. | 2023-yil mart |
| 18. | Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarini o‘quv jarayonida jamoatchilik va mahalla faollari ishtirokida jamiyatga tayyorlash va maktabni bitirgandan keyin mustaqil hayotga moslashtirish, kasbga o‘rgatish va bandligini ta’minlash bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirsin. | 2023-yil may |
| 19. | Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari bitiruvchilarini hududlardagi “Ishga marhamat” monomarkazlarida kasb-hunarga o‘qitib, ularni munosib ish o‘rinlari bilan ta’minlash va o‘zini-o‘zi band qilish imkoniyatlarini yaratish choralarini ko‘rib borsin. | 2023-yil fevral |
| 20. | Ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish ko‘lamini 2 barobarga oshirish. Bunda: har yili kasb-hunarga o‘qitiladigan fuqarolar soni, hududlar va tarmoqlar kesimida ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga oid davlat buyurtmasini ishlab chiqish; mahalla kasb-hunarga o‘qitish maskanlari tarmog‘ini kengaytirib, ularning sonini 1 000 taga yetkazish; 16 ta “Ishga marhamat” monomarkazlari va 59 ta kasb-hunarga o‘qitish markazlari quvvatlaridan samarali foydalangan holda ishsiz fuqarolarni professional kasblar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish; Monomarkaz huzuridagi “O‘quv-maslahat ofis”lariga xorijiy davlatlardan, jumladan, Rossiya, Turkiya, Yaponiya, Koreya, Germaniyadan 100 ga yaqin xorijiy o‘qituv-chilarni jalb qilish; kasb-hunarga o‘qitishda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish maqsadida kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha grantlar e’lon qilish. | 2023-yil iyun |
| 21. | maxsus o‘quv kurslari yakuni bo‘yicha ta’lim oluvchilar uchun yakuniy nazorat imtihonlari tashkil etiladi. Bunda, yakuniy nazorat imtihonlarini qabul qiluvchi komissiya tarkibiga majburiy tarzda hududiy karlar va ko‘zi ojizlar jamiyatlaridan vakillar hamda o‘zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosi bo‘yicha malakali mutaxassislar jalb etiladi | 2023-yil may |
| 22. | 2023-yil 1 yanvardan boshlab, talablardan kelib chiqqan holda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari hamda “Ishga marhamat” monomarkazlarida o‘zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini o‘rgatish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari tashkil etiladi | 2023-yil may |
| 23. | “Saxovat” internat uylarida har yili kamida ikki marotaba vasiylikka olingan keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun oshpazlik, qandolatchilik, sartaroshlik, tikuvchilik va ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda boshqa mos yo‘nalishlar bo‘yicha qisqa muddatli bepul kurslarni tashkil etsin. | 2023-yil iyun |
| 24. | Barcha turdagi malaka sertifikatlarining muddati tugashidan oldin sertifikat egalarini malaka sertifikati muddatini uzaytirish (malaka oshirishi) lozimligi haqida xabardor qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish. | 2023-yil iyun |
| 25. | 55,9 ming nafar mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlari asosida xotin-qizlarni kasbga o‘qitish ishlarini tashkil etish. | 2023-yil iyun |
| 26. | Ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari kasbga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilishini yo‘lga qo‘yish. | 2023-yil aprel |
| 27. | Ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish ko‘lamini 2 barobarga oshirish. Bunda: har yili kasb-hunarga o‘qitiladigan fuqarolar soni, hududlar va tarmoqlar kesimida ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga oid davlat buyurtmasini ishlab chiqish; mahalla kasb-hunarga o‘qitish maskanlari tarmog‘ini kengaytirib, ularning sonini 1 000 taga yetkazish; 16 ta “Ishga marhamat” monomarkazlari va 59 ta kasb-hunarga o‘qitish markazlari quvvatlaridan samarali foydalangan holda ishsiz fuqarolarni professional kasblar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish; Monomarkaz huzuridagi “O‘quv-maslahat ofis”lariga xorijiy davlatlardan, jumladan, | 2023-yil iyun |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati |
|---|---|---|
| | Rossiya, Turkiya, Yaponiya, Koreya, Germaniyadan 100 ga yaqin xorijiy o‘qituvchilarni jalb qilish; kasb-hunarga o‘qitishda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish | |
| 28. | Xatlov natijalaridan kelib chiqib Ko‘nikma, muvofiqlik va malakani baholash milliy tizimini muvofiqlashtirish boshqarmasi faoliyatiga aloqador bo‘lgan normativ huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish uchun takliflarni ishlab chiqish. | 2023-yil aprel |
| 29. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 31 dekabrdagi “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4939-sonli Qaroriga asosan Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha kengashning tashkiliy majlisini o‘tkazish. | Har chorak |
| 30. | Tarmoq va hududiy kengashlar bilan birgalikda malakalarni baholash tizimini joriy etish bo‘yicha faoliyat natijalarini muhokama qilib, har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi va Vazirlar Mahkamasiga hisobot taqdim etib borish. | Har chorak |
| 31. | Vazirlik va idoralar huzurida tashkil etilgan malakani baholash markazlari o‘z faoliyatini amalga oshirish maqsadida malaka.mehnat.uz dasturi orqali vazirlikka kelib tushgan buyurtmalarini va tegishli hujjatlarini ko‘rib chiqish hamda Respublika kengashining taqdimnomasiga asosan malakani baholash markazlariga akkreditasiya guvohnomalarini taqdim etish. | Vazirlikka kelib tushgan arizaga asosan |
| 32. | Malakani baholash markazlarini tashkil etishga ko‘maklashuvchi faoliyatni amalga oshirish, faoliyatini muvofiqlashtirish, kasbiy malakasi baholangan va tasdiqlangan shaxslar reyestrini yuritish hamda tahlil qilib natijalari bo‘yicha har chorakda Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashining yig‘ilishida muhokama qilish. | Har chorak |
| 33. | Mehnat bozori talablariga mos keluvchi, lavozimda o‘sish va raqobatbardoshlikni ta’minlovchi kasbiy malaka va ko‘nikmalari baholash tizimini joriy etish, talabgorlarning, o‘zlashtirish usulidan qat’iy nazar, mehnat bozorida talab etilgan kasb malakalarini baholash tizimini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. | 2023-yil aprel |
| | **Mehnat standartlari va mehnatga xaq to‘lash sohasida** | |
| 34. | O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 28 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘RQ-798-son Qonuni ijrosi bo‘yicha mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va ayrimlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish. | 2023 yil yanvar-aprel |
| 35. | O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2002 yil 1 apreldagi “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 21-son buyrug‘ini (1136, 08.05.2022 y.) qayta ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini tayyorlash. | 2023 yil may |
| 36. | O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Xodimlar sonini tartibga solish va boshqaruv tarkibini ta’minlash uchun xarajatlarni maqbullash bo‘yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (1288, 09.12.2003 y) qayta ko‘rib chiqish va davlat tilida tasdiqlash | 2023 yil may |
| 37. | “Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko‘ra bekor qilinib, ogohlantirish muddati pullik kompensasiyaga almashtirilganda xodimlarga moddiy madad berish tartibi haqida Tushuntirish” (720, 10.05.1999 y) o‘zgartirish kiritish | 2023 yil may |
| 38. | “Idoraviy mansubligi, mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllaridan qat’i nazar, korxona, muassasa, tashkilot ichki mehnat tartibining namunaviy qoidalari” (746, 14.06.1999 y) davlat tilida qaytadan ishlab chiqish. | 2023 yil iyun |
| 39. | “Ishlaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun har oylik nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” (1113, 14.03.2002 y) o‘zgartirish kiritish | 2023 yil iyun |
| 40. | “Yillik mehnat ta’tili vaqtida saqlanib qolinadigan o‘rtacha ish haqi miqdorini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” (2985, 17.03.2018 y) | 2023 yil iyun |
| 41. | “Mehnat daftarchalarini yuritish tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnoma” (402, 29.01.1998 y) o‘zgartirish kiritish. | 2023 yil iyun |
| | **Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda hokim yordamchilarini ishlarini rivojlantirish borasida** | |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati |
|---|---|---|
| 42. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 20-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash | 2023-yil davomida |
| 43. | 2023-yil “Sifatli ta’lim va inson manfaatlari yili” davlat dasturida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan yo‘l xarita loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta’minlash | 2023-yil fevral |
| 44. | Ko‘p o‘lchamli usul asosida kambag‘allik darajasini o‘lchash bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish. | 2023-yil, iyun |
| 45. | Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni “Temir daftar”ni yuritish orqali qo‘llab-quvvatlash faoliyatini monitoring qilib borish va natijalari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritib borish. | Har oy yakuni bo‘yicha |
| 46. | “Temir daftar”ga kiritilgan fuqarolarga moddiy yordam yoki kompensatsiya to‘lashdan oldin oilaning kam ta’minlanganligini “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali tasdiqlash mexanizmini joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlash. | 2023-yil, may |
| 47. | “Ijtimoiy himoya yagona reestri” orqali fuqarolarga nafaqa va yordamlar belgilash me’zonlarini qayta ko‘rib chiqish hamda sarflanyotgan mablag‘larning manzilliligi va natijadorligini oshirish maqsadida tizim faoliyatini takomillshatirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish | 2023-yil, may |
| 48. | Kambag‘allikni qisqartirishning yangi vositalarini amaliyotga joriy etishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini loyihasini ishlab chiqish. | 2023-yil, iyun |
| 49. | “Temir daftar”ni yuritish orqali ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir oilalar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha vaqtinchalik tartibi to‘g‘risidagi nizomni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. | 2023-yil, aprel |
| 50. | Qabul qilinayotgan normative-huquqiy hujjatlarni kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligiga ta’siri nuqtai nazardan ekspertizadan o‘tkazib borish | Doimiy |
| 51. | Kambag‘allik darajasining 2023-yil uchun hisoblab chiqish va e’lon qilinishini ta’minlash | 2023-yil yanvar |
| 52. | Yillik minimal iste’mol xarajatlari qiymatini 2023-yil uchun hisoblab chiqish va e’lon qilinishini ta’minlash | 2023-yil |
| 53. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2022-yil 24-dekabrdagi 02-PA 1-21498-son topshirig‘iga asosan “Hududlarda hokim yordamchilari faoliyati va istiqboldagi vazifalariga bag‘ishlangan anjuman”larni tashkil etish | 2023-yil 1-yarim yilligi davomida |
| 54. | Hokim yordamchilari faoliyatini metodik ta’minlash va ularning faoliyatini baholash mezonlarini takomillashtirish | |
| 55. | Hududlarda kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash bo‘yicha seminarlar tashkil etish | 2023-yil davomida |
| 56. | Hududlarda kambag‘allikni qisqartirish borasida olib borilayotgan ishlar samaradorlogini oshirish yuzasidan xizmat safarlarini tashkil etish | 2023-yil davomida |
| 57. | Pokiston Islom Respublikasi va Tojikiston Respublikasining kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mas’ul vazirliklari bilan anglashuv memorandumini imzolash va uni samarali joriy etish maqsadida hamkorlik dasturini tasdiqlash. | 2023-yil, may |
| 58. | Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xorijiy davlatlarning (Turkiya, Malayziya, Germaniya, Gruziya) ilg‘or tajribalarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish | 2023-yil yil davomida |
| 59. | Xitoy Xalq Respublikasi bilan kambag‘allikka qarshi kurashish yo‘nalishida joriy etilgan hamkorlikni kengaytirish:<br>- Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida tasdiqlangan 2022-2023 Hamkorlik dasturini ijrosini ta’minlash;<br>- Xitoyning ilg‘or tajribasini o‘rganish maqsadida O‘zbekiston delegatsiyasini Xitoyga tashrifini amalga oshirish;<br>- O‘zbekiston-Xitoy hukumatlararo qo‘mitasining kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha quyi-qo‘mitasini tashkil etish va birinchi uchrashuvini o‘tkazish; | 2023-yil |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati |
|---|---|---|
| | - Xitoyning tegishli tashkilotlari bilan kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha 5 yilga mo‘ljallangan qo‘shma hamkorlik dasturini ishlab chiqish va imzolash. | |
| 60. | Hokim yordamchilari tomonidan “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”dagi oilalarning iqtisodiy ahvoli joyida o‘rganilib, mahalla raisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchilari bilan birgalikda oilalarning daromadi “kambag‘allik chegarasidan yuqori yoki pastligi to‘g‘risida dalolatnoma” rasmiylashtirish ishlarini muvofiqlashtirish va har bir oila bilan “individual dastur” va “ijtimoiy shartnoma” asosida ish tashkil etish | 2023 yil |
| 61. | Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqishda ishtirok etish va uni amalga oshirilishi bo‘yicha monitoring olib borish. | 2023 yil |
| 62. | Hokim yordamchilari tomonidan barcha mahallalarda qaytadan “xonadonbay” xatlov o‘tkazish ishlarini muvofiqlashtirish, 6,9 million xonadonlarni xatlovdan o‘tkazish orqali ularning balansini ishlab chiqish. | 2023 yil 1-chorakda |
| 63. | Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 400 ming nafar fuqaroga 10 trln.so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratishga ko‘maklashish | 2023 yil |
| 64. | Mahallalarning «o‘sish nuqtalari»ni aniqlash, mavjud “drayver” loyihalari va 40 mingdan ortiq “mikro” loyihalarni amalga oshirish. | 2023 yil davomida |
| 65. | Paxta va g‘alladan qisqartirilgan va aholiga uzoq bo‘lmagan hududlardan 100 ming gektar yer maydonlarini auksion orqali aholiga ajratish hisobida 400 mingdan ortiq fuqarolarni bandligini ta’minlash. | 2023 yil davomida |
| 66. | Mahallabay ishlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikka ko‘maklashish va kambag‘allikni qisqartirishga oid (aholi bandligi ta’minlash, tashkil etilgan tadbirkorlik sub’yektlari, ajratilgan kredit va subsidiyalar, kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish va boshqa) statistik ko‘rsatkichlarni umumlashtirish, “yo‘l xarita”larini ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish hisobotlarni tayyorlash. | 2023 yil davomida |
| 67. | Hududiy boshqarmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, faoliyat samaradorligini baholash, hokim yordamchilari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yangilab borish. | doimiy |
| 68. | Hokim yordamchilarining ish haqi kompensasiyasi, ijara to‘lovlari bo‘yicha kompensasiyasi hamda KPI mukofot pullarini to‘lash, agentlik faoliyatiga oid dasturlar, chora-tadbirlar rejalari, mahallalar kesimida konsepsiyani ishlab chiqish va o‘tkaziladigan taqdimotlarni OAVlarida yoritilishini ta’minlash. | Har oy, Har chorak |
| 69. | Hokim yordamchilarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish borasida o‘quv-seminarlar o‘tkazish, Turkiyaning KOSGEB va TIKA tashkiloti bilan hamkorlikda 50 nafar hokim yordamchilarini chet elda malakasini oshirish ishlarini tashkil etish. | 2023-yil I yarim yillikda |
| 70. | Kasb-hunarga o‘qish istagida bo‘lgan yoshlar va xotin-qizlarni o‘qishga yo‘naltirish, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 22 iyundagi 388-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan kompensasiya xarajatlarini qoplab berish. | 2023 yil I-yarim yillikda |
| 71. | “RealSoft” MCHJ bilan hamkorlikda “Onlayn-mahalla” platformasi uzluksiz va mukammal ishlashini tashkil etish, yangi modullar yaratish. | 2023 yil I va II choragi |
| 72. | Hududlardagi kasanachi va tomorqa yer egalari tomonidan ishlab chiqarilgan (yetishtirilgan) maxsulotlarni marketpleys (online-bozor.uz) orqali sotish imkonini beruvchi alohida platformani ishga tushirish. | 2023 yil I va II choragi |
| 73. | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 maydagi 252-son qarori bilan tasdiqlangan “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi mablag‘laridan subsidiyalar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan 30 ming nafar aholiga, jumladan, ishsiz, kam ta’minlangan shaxslarga subsidiyalar ajratish | 2023-yil I yarim yillikda |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati |
|---|---|---|
| 74. | Ajratilgan subsidiyalarning samaradorligi va maqsadliligi yuzasidan monitoring qilish hamda yangi yo‘nalishdagi moliyaviy instrumentlarni joriy etish yoki samarasiz yo‘nalishlarni bekor qilish bo‘yicha qonunchilikka takliflar berish | 2023-yil davomida |
| 75. | Tadbirkorlarning muammolarini idoralararo muvofiqlashtirishda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishga vakolat beruvchi me’yoriy-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishga taklif kiritish, hokimliklar bilan birgalikda tadbirkorlar uchun sayyor qabullar tashkil qilish va ko‘tarilgan masalalarni hal etish bo‘yicha mas’ul tashkilotlar bilan ishlash. | Yil davomida |
| 76. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 10 fevraldagi PF-6166-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash. | 2023-yil<br>I yarim<br>yillikda |
| 77. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini taьminlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021 yil 31 maydagi PQ-5132-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash. | 2023-yil<br>I-chorakda,<br>I-yarim<br>yillikda |
| | **Hotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, bandligiga ko‘maklashish va xotin-qizlar vakillarini ishlarini muvofiqlashtirish borasida** | |
| 78. | **“Ayollar daftari”**ga kiritilgan xotin-qizlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash choralarini ko’rish.<br>**Bunda:**<br>1. Uyma-uy yurish orqali so’rovnoma-anketalarni to’ldirish, “Ayollar daftari”ga kiritiladigan xotin-qizlarning toifalarini belgilash, individual dastur va “Yo’l xaritalari”ni tuzishda hududiy bo’linmalar va mahalla xotin-qizlar faollariga amaliy-uslubiy ko’maklashish.<br>2. “Ayollar daftari” platformasini xotin-qizlarga amaliy yordamlarni ko’rsatishga mas’ul vazirlik va idoralarning elektron tizimlari bilan integratsiya qilish ishlarini yakunlash.<br>3. “Ayollar daftari”dagi toifalar bo’yicha amaliy yordamlar ko’rsatish ishlarini muvofiqlashtirish, mavjud muammolarni aniqlash va hal etish choralarini ko’rish.<br>4. Joylarga chiqqan holda va platforma orqali ko’rsatilayotgan amaliy yordamlarni o’rganish.<br>5. O’rganish natijalari asosida “Ayollar daftari” bilan ishlash tizimi bo’yicha joylarda aniqlangan muammolarni mas’ullar ishtirokida muhokama qilish va hal etish choralarini ko’rish.<br>6. Amalga oshirilgan ishlar va o’rganish natijalari yuzasidan Respublika komissiyasi yig’ilishlariga material tayyorlash. | Yanvar fevral<br>Yanvar fevral<br>Yanva fevral<br>belgilangan<br>muddatlarda<br>reja-<br>grafik asosida<br>belgilangan<br>muddatlarda<br>har chorakda<br>bir marta |
| 79. | Mahalla xotin-qizlar faollari uchun oilalarga ijtimoiy xizmatlarning ko’rsatilishini tashkil etish bo’yicha o’quv seminarlarini o’tkazish.<br>1. Mutasaddi vazirlik va idoralarning mas’ul xodimlaridan iborat ishchi guruhini tuzish.<br>2. Ishchi guruhi tomonidan o’quv seminari dasturi, targ’ibot va ko’rgazmali o’quv materiallari, shuningdek o’quvlarni tashkil etish va o’tkazish reja-grafiklarini ishlab chiqish.<br>3. Reja-grafik asosida an’anaviy va masofaviy o’quv seminarlari o’tkazilishini tashkil etish va muvofiqlashtirib borish.<br>4. O’quvlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.<br>5. O’quvlar yakuni bo’yicha tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash. | fevral<br>fevral<br>mart oyidan boshlab<br>har chorakda<br>bir marotaba<br>har chorak<br>yakunida |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati |
|---|---|---|
| 80. | Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, shu jumladan, nogironligi bo'lgan kam ta'minlangan oilalardagi xotin-qizlarni jarrohlik yo'li bilan sog'lom hayotga qaytarish choralarini ko'rish.<br>1. Jarrohlik yo'li bilan sog'lom hayotga qaytarishga muhtoj bo'lgan og'ir ijtimoiy vaziyatdagi, shu jumladan, nogironligi bo'lgan kam ta'minlangan oilalardagi xotin-qizlar ro'yxatini shakllantirish.<br>2. Ro'yxatga kiritilgan xotin-qizlarning tegishli hujjatlarini rasmiylashtirishga ko'maklashish, Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi hisobidan zarur mablag'larni ajratish.<br>3. Ro'yxatga kiritilgan xotin-qizlarning tegishli hujjatlarini rasmiylashtirishga ko'maklashish, Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi hisobidan zarur mablag'larni ajratish.<br>Ushbu yo'nalishda chora-tadbirlar ijrosini monitoring qilish. | yanvar-iyun<br><br>belgilangan muddatlarda<br><br>har chorakda |
| 81. | Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, shu jumladan, nogironligi bo'lgan kam ta'minlangan oilalardagi xotin-qizlarni **reabilitatsiya vositalari** bilan ta'minlash.<br>1. Reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlashga ehtiyoji bo'lgan, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, shu jumladan, nogironligi bo'lgan kam ta'minlangan oilalardagi xotin-qizlarning ro'yxatlarni shakllantirish.<br>2. Talabgorlarning ro'yxatlarini Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasiga yuborish.<br>Ajratilgan reabilitatsiya vositalarini joylarga yetkazish bo'yicha tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish. | mart-iyun<br>belgilangan muddatlarda<br><br>har chorakda |
| 82. | **"Mahallada ijtimoiy xizmat"** modulining samarali ishlashini va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga yangi tizim asosida ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini mahalla darajasida muvofiqlashtirib borish.<br>1. Mahalla, tuman (shahar), viloyat kesimida ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni, hududiy va tuman (shahar) shtablari faoliyatini o'rganish va tahlil qilish.<br>2. Sohada mavjud muammolarni aniqlash va ma'lumotlarni umumlashtirish.<br>3. Ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishga mas'ul vazirlik va idoralarning elektron tizimlari bilan integratsiya qilish ishlarini yakunlash.<br>Mahallalarda kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni joriy qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha respublika shtabi yig'ilishini tashkil etish va o'tkazish. | har oyda bir marta<br><br>yanvar-mart<br>har chorakda |
| 83. | Uy-joyga muhtoj noturar joylarda yashayotgan va ehtiyojmand, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarning **uy-joy sharoitlarini yaxshilash.**<br>1. "Ayollar daftari" tizimi orqali:<br>2. Xotin-qizlarga turar-joy ijara to'lovi bo'yicha kompensatsiyalar to'lash bo'yicha hujjatlarini rasmiylashtirish.<br>3. Xotin-qizlarni ijtimoiy ijara shartlari asosida ijtimoiy uy-joylarga joylashtirish.<br>Amalga oshirilayotgan ishlar monitoringini yuritish | mart-iyun<br><br>yanvar mart<br>har chorakda bir marta |
| 84. | Oilalarning boqimandalik kayfiyatiga kelib qolishlarining salbiy oqibatlari, shu bilan birga o'z harakati va tashabbuskorligi bilan oilani kam ta'minlanganlik holatidan olib chiqqan fuqarolar, shu jumladan xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan shaxslarning ibratli faoliyatlarini aks ettiruvchi **ko'rsatuvlar va ijtimoiy roliklarni** tayyorlash. | fevral oyidan boshlab<br>reja asosida |
| 85. | Mahallalarda **ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini** joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish:<br>**- Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati**<br>**- Samarqand va Jizzax viloyatlari**<br>- boshqa viloyatlar | Yanvar<br>fevral<br>alohida reja-grafik va kelishuv asosida |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati |
|---|---|---|
| 86. | **“Mashinasoz ayollar – 2023”, “Dasturchi ayollar – 2023”, “MEDICALWOMEN.UZ-2023”** forumlarini tashkil qilish va o’tkazish.<br>1. Forum tashkil qilinadigan joy, kun vaqtni aniqlash;<br>- Forumda ishtirok etadigan xotin-qizlarning ma’ruzalarini qabul qilish hamda ma’ruzalar to’plamini shakllantirish;<br>- Forum dasturini ishlab chiqish.<br>- Tadbirni yuqori saviyada tashkil qilish va o’tkazish.<br>2. Forumni OAVlar hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritilishini yo’lga qo’yish. | fevral<br>fevral,<br>aprel<br><br>belgilangan<br>muddatda |
| 87. | **“IT-Women.Uz-2023”** dasturchi xotin-qizlarning innovatsion haftaligini o’tkazish va **“IT-Women.Uz”** loyihasi doirasida barcha hududlarda tashkil qilinishi rejalashtirilgan ta’lim dasturlariga start berish.<br>1. Haftalik o’tkaziladigan joy, kun va vaqtni aniqlash va haftalik doirasida o’tkaziladigan tadbirlarda mutaxassis sifatida ishtirok etadigan olima ayollar va IT kompaniyalarda ishlayotgan xotin-qizlarning ro’yxatini shakllantirish;<br>- haftalik dasturini ishlab chiqish;<br>- bandligi ta’minlanmagan va imkoniyati cheklangan xotin-qizlar uchun oflayn va onlayn shaklda maxsus o’quv kurslari tashkil qilish;<br>- haftalik doirasida o’tkaziladigan forum, seminar, o’quv mashg’ulotlari, davra suhbatlari, uchrashuvlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etadigan bandligi ta’minlanmagan va imkoniyati cheklangan xotin-qizlarning ro’yxatini shakllantirish;<br>- haftalik doirasida o’tkaziladigan forum, seminar, o’quv mashg’ulotlari, davra suhbatlari, uchrashuvlar va boshqa tadbirlarni belgilangan joyda o’z vaqtida tashkil qilish.<br>3. “IT Women.Uz” loyihasi doirasida rejalash-tirilgan ta’lim dasturlariga barcha hududlarda start berish va o’quv kurslarini tasdiqlangan o’quv rejasi asosida tashkil qilish.<br>4. O’quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan xotin-qizlarga sertifikat topshirish marosimlarini o’tkazish.<br>5. Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish. | fevral,<br>mart<br><br>Mart oyidan<br>boshlab<br><br>reja asosida |
| 88. | Oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining olima ayolari, umumta’lim maktablari va akademik litseylarning rahbar xodimlari bilan hamkorlikda mamlakatimizda xotin-qizlar ta’limini qo’llab-quvvatlash bo’yicha berilgan imtiyoz va imkoniyatlar haqida targ’ibot tadbirlarini tashkil qilish.<br>1. Tadbirlarda ishtirok etadigan o’quvchi qizlarning ro’yxatini shakllantirish;<br>- targ’ibot tadbirlarining namunaviy dasturini tayyorlash;<br>- xotin-qizlar ta’limini qo’llab-quvvatlash bo’yicha berilgan imtiyoz va imkoniyatlar haqida targ’ibot materiallarini tayyorlash;<br>- tadbir o’tkaziladigan kun va vaqtni aniqlash, grafiklarni ishlab chiqish.<br>- Ishlab chiqilgan hujjatlar va materiallar asosida barcha umumta’lim maktablari va akademik litseylarda o’quvchi qizlar o’rtasida targ’ibot tadbirlarini tashkil qilish.<br>2. Targ’ibot tadbirlari doirasida qatnashgan xotin-qizlar o’rtasida “Bilimdon qizlar” mavzusida viktorina o’tkazish.<br>3. Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish. | fevral<br><br>fevral-<br>mart<br><br>mart-<br>may<br>tadbirlar doirasida |
| 89. | Amaliy innovatsion loyihalar bo’yicha **“Olima ayol”** va **“Bo’lajak olim”** tanlovlari doirasida o’tkaziladigan **“Ayollar biznesi uchun birinchi qadam”** tanlovida xotin-qizlarning faol ishtirok etishlarini tashkil qilish.<br>1. Xotin-qizlar o’rtasida “Ayollar biznesi uchun birinchi qadam” tanlovi va unda ishtirok etishning ahamiyati haqida tushuntirish-targ’ibot tadbirlarini tashkil etish.<br>Tanlovda ishtirok etishni rejalashtirgan xotin-qizlar ro’yxatini shakllantirish va ular uchun loyihalarni tayyorlash bo’yicha o’quv seminarlarini o’tkazish. | fevral-<br>mart<br><br>mart |
| 90. | Mahallalarda xotin-qizlar o’rtasida **“Bitta qiz bolani o’qitsangiz – butun oilani o’qitgan bo’lasiz!”** mavzusida davra suhbatlarini tashkil qilish.<br>Barcha hududlardagi olima ayollar hamda viloyat va tuman (shahar)lardagi “Oqila ayollar harakati” a’zolari ro’yxatini shakllantirish;<br>- tadbirlarni o’tkazish grafiklarini va ro’yxatga kiritilgan faollarni mahallalarga biriktirish jadvallarini ishlab chiqish;<br>- davra suhbatini o’tkazish dasturini tayyorlash;<br>2. “Bitta qiz bolani o’qitsangiz – butun oilani o’qitgan bo’lasiz!” mavzusida targ’ibot materiallarini tayyorlash; | Fevral<br>mart |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati |
|---|---|---|
| | - tadbirda ishtirok etadigan umumta’lim maktablarining yuqori sinf o’quvchi qizlari va ularning ota-onalari ro’yxatini shakllantirish.<br>3. Ishlab chiqilgan hujjatlar va materiallar asosida barcha mahallalarda umumta’lim maktablarining yuqori sinf o’quvchi qizlari va ularning ota-onalari o’rtasida davra suhbatlarini tashkil qilish.<br>3. Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish. | mart oyidan boshlab reja asosida |
| 91. | **“O’zbekiston olimalari”** veb-saytini yaratish.<br>Ishchi guruhini shakllantirish.<br>Ishchi guruhi tomonidan:<br>veb-saytni yaratish yuzasidan texnik shartlarni ishlab chiqish;<br>saytga joylashtiriladigan ma’lumotlarni tayyorlash;<br>“O’zbekiston olimalari” veb-saytiga ma’lumotlarni joylashtirish va muntazam ravishda yangi ma’lumotlar bilan to’ldirib borish. | mart<br><br>mart-iyun<br>oyidan boshlab muntazam ravishda |
| 92. | Xotin-qizlarni zamonaviy bilimlar va kasb-hunar egasi bo’lishlari hamda oliy ma’lumotli ayollar safini kengaytirish, ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolliklarini oshirish maqsadida **“Ilmli ayol – jamiyat ko’zgusi” shiori ostida “XXI asr ayoli”** xotin-qizlar festivalini o’tkazish.<br>1. Festivalni tashkil etish va o’tkazish kontseptsiyasi loyihasini ishlab chiqish;<br>2. Barcha hududlardan festivalda ishtirok etadigan xotin-qizlar ro’yxatini shakllantirish;<br>3. Festival doirasida o’tkaziladigan forum, seminar, viktorina, ko’rgazma, davra suhbatlari, uchrashuv va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etadigan xotin-qizlarning ro’yxatini shakllantirish.<br>4. Festivalni yuqori saviyada tashkil etish va o’tkazish. | mart<br><br>aprel-may<br><br>alohida reja asosida |
| 93. | “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida **“Onalar yashil makon uchun”** aksiyasini barcha hududlarda o’tkazish **va “Onalar bog’lari”**ni tashkil qilish.<br>1. “Onalar yashil makon uchun” aksiyasini barcha tuman (shahar)larda, mahallalarda o’tkazish.<br>2. Aksiya doirasida xotin-qizlar ishtirokida mahallalarda:<br>- ichki ko’chalar, maydonlar va ko’p qavatli uylar oldidagi bo’sh yerlarga, boquvchisini yo’qotgan ehtiyojmand xotin-qizlarning tomorqa yerlarida manzarali hamda mevali daraxtlar, gul ko’chatlari va rayhonlar ekish;<br>- kam ta’minlangan oilalardagi xotin-qizlarning dorivor o’simliklar ekish va parvarish qilish orqali bandligini ta’minlash ishlarini tashkillashtirish.<br>3. Tuman va shaharlarda “Onalar bog’lari”ni tashkil qilish.<br>4. Mahallalarda va ta’lim muassasalarida qizlar o’rtasida “Onalar yashil makon uchun” aksiyasining ma’naviy ahamiyati haqida” davra suhbatlarini o’tkazish.<br>Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish. | Aksiyalarni o`tkazish – mart-may,<br><br>oktabr-dekabr oylari |
| 94. | Xotin-qizlar o’rtasida ilmiy va startap g’oyalarini ro’yobga chiqarish ko’nikmalarini shakllantirish, ularni ilmiy-innovatsion faoliyatga keng jalb etish, olima va tadbirkor ayollar safini oshirish maqsadida **“INNOWOMENWEEK”** – ixtirochi xotin-qizlarning innovatsion haftaligini o’tkazish.<br>1. Haftalik doirasida tashkil qilinadigan tadbirlarda xotin-qizlarning faol ishtirok etishlari haqida targ’ibot ishlarini tashkillashtirish;<br>2. Haftalikni tashkil etish va o’tkazish dasturini ishlab chiqish;<br>mamlakatimizning 14 ta hududida haftalik o’tkaziladigan joylarni aniqlash;<br>3. Haftalikda ishtirok etadigan xotin-qizlarning ro’yxatini shakllantirish;<br>4. Haftalikni yuqori saviyada tashkil etish va o’tkazish.<br>5. Haftalik doirasida tashkil qilinadigan tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish. | Aprel<br><br>May-iyun<br><br>Iyul-sentabr |
| 95. | **“Fan va texnika taraqqiyotida xotin-qizlarning o’rni”** mavzusida xotin-qizlar forumini o’tkazish.<br>1. Hududlar kesimida Forum o’tkaziladigan oliy ta’lim muassasalarini aniqlash;<br>2. Forumni tashkil etish va o’tkazish bo’yicha namunaviy dasturni ishlab chiqish;<br>3. Forumda o’z ma’ruzalari bilan qatnashadigan olimlar va mutaxassislar hamda ishtirok etadigan xotin-qizlar ro’yxatini shakllantirish. | may<br>iyun-<br>iyul |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati |
|---|---|---|
| | 4. Forumni yuqori saviyada tashkil etish va o’tkazish.<br>Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritilishini yo’lga qo’yish. | sentabr-oktabr |
| 96. | **“Hududning 100 nafar ixtirochi ayoli” haftaligini o’tkazish.**<br>Haftalikni o’tkazish bo’yicha Nizom va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;<br>- Haftalik doirasida tashkil qilinadigan tadbirlarda xotin-qizlarning faol ishtirok etishlari haqida targ’ibot ishlarini tashkillashtirish;<br>- Haftalikni tashkil etish va o’tkazish dasturini ishlab chiqish;<br>- Haftalikda ishtirok etadigan xotin-qizlarning ro’yxatini shakllantirish;<br>- Haftalikni yuqori saviyada tashkil etish va o’tkazish.<br>- Haftalik doirasida tashkil qilinadigan tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish. | iyun<br><br>iyul-avgust<br><br><br>sentyabr-noyabr |
| 97. | **“Oila mustahkamligi uchun barchamiz mas’ulmiz!”** shiori ostida ajrim yoqasida turgan oilalarni yarashtirish, notinch oilalarda muhitni sog’lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish.<br>1. Haftaning har shanba kunini **“Oilalarni mustahkamlash kuni”** sifatida belgilash bo’yicha mutasaddi vazirlik va idoralarning qo’shma qarorini ishlab chiqish va qabul qilish.<br>2. **“Oilalarni mustahkamlash kuni”**da mahallalardagi Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyalari tomonidan ajrim yoqasida turgan oilalarni yarashtirish, notinch oilalarda muhitni sog’lomlashtirish choralarini ko’rish amaliyotini yo’lga qo’yish.<br>3. Oilalarni mustahkamlash, ularda sog’lom turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan targ’ibot-tashviqot tadbirlarini OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish. | <br><br>har haftaning shanba kuni<br><br><br>yil davomida |
| 98. | Oilalarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida **“Kitobxonlik oiladan boshlanadi: “K itobxon ona – kitobxon bola”** g’oyasini targ’ib qilish.<br>1. “Kitobxonlik oiladan boshlanadi: “Kitobxon ona – kitobxon bola” g’oyasining mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida targ’ibot materiallarini ishlab chiqish;<br>– onalarning farzandlarida kitobga mehr uyg’otish bo’yicha onalar uchun ta’sirchan tavsiyalarni tayyorlash;<br>– yuqoridagi g’oyani mahallalarda va maktablarda targ’ibot tadbirlarini o’tkazish grafiklarini va namunaviy dasturni ishlab chiqish;<br>– mahallalarda elektron kutubxonalarni tashkil etish mexanizmlari bo’yicha takliflar tayyorlash.<br>2. Targ’ibot tadbirlarini yozuvchi, adiblar ishtirokida yuqori saviyada tashkil etish va o’tkazish.<br>3. Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish. | yanvar<br><br><br><br>yanvar-fevral<br>Fevral oyidan boshlab reja asosida |
| 99. | Har oyning 17-sanasini **“Kitobxon onalar kuni”** deb belgilash va ushbu kunni mahallalarda, oilalarda yuqori saviyada o’tkazish.<br>1. “Kitobxon onalar kuni”ni mahallalarda va oilalarda o’tkazish bo’yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;<br>– “Kitobxon onalar kuni”ni mahallalarda va oilalarda o’tkazishning ahamiyati, shuningdek har bir onaning o’zi o’qigan asari haqida farzandlariga fikr-mulohazalar bildirish va taqdimot qilish zarurligi haqida targ’ibot materiallarini tayyorlash;<br>– ushbu kunni o’tkazishda e’tibor qilinadigan jihatlar haqida uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.<br>2. Ishlab chiqilgan materiallarni mahalla xotin-qizlar faollari, ko’chaboshilar, “Oqila ayollar harakati” a’zolariga yetkazish.<br>3. “Kitobxon onalar kuni”ni mahallalarda va oilalarda o’tkazish.<br>4. “Kitobxon onalar kuni” Milliy kutubxonada ochiq eshiklar kuni bo’lishini belgilash va bu haqda OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ’ib qilish. | yanvar<br>yanvar-fevral<br>fevral<br><br><br><br>har oyning 17-sanasida |
| 100. | Oilalarda sog’lom turmush tarzini ta’minlash, yigitlarga oila boshlig’i mas’uliyatini singdirish va ularni otalikka tayyorlab borish ishlarini takomillashtirish maqsadida mahallalarda **“Otalar maktabi”** va ta’lim muassasalarida **“Yigitlar klubi”** jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini yo’lga qo’yish.<br>1. Mahallalarda “Otalar klubi”, ta’lim muassasalarida “Yigitlar klubi” jamoatchilik tuzilmalari haqida nizomlar loyihalari;<br>– tuzilmalarning alohida namunaviy yillik ish rejalari;<br>– tuzilmalarni shakllantirish bo’yicha tadbirlar reja-grafigini ishlab chiqish.<br>2. Hujjatlarni vazirlik va idoralarning qo’shma qarori asosida rasmiylashtirish va ijroga qaratish.<br>3. Namunaviy nizomlar va ish rejalari asosida “Otalar maktablari”, “Yigitlar klublari”ning nizomlari va rejalari ishlab chiqilishi va tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilishiga hamda ular faoliyati samarali yo’lga qo’yilishiga uslubiy ko’maklashish. | <br>yanvar-fevral<br><br>fevral<br><br>fevral-mart |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati |
|---|---|---|
| | 4. “Otalar maktablari”, “Yigitlar klublari” faoliyatini monitoring qilish. | har chorakda |
| 101. | Mamlakatimizda oilalar va xotin-qizlarga psixologik xizmatlar ko’rsatish qamrovini kengaytirish va samaradorligini oshirish maqsadida **“Psixologlar kengashi”** ni tuzish.<br>1. Mutasaddi vazirlik va idoralarning mas’ul xodimlaridan iborat ishchi guruhini tuzish.<br>2. Ishchi guruhi tomonidan “Psixologlar kengashi”ni tashkil etishga doir hujjatlar (Nizom, kengash tarkibi, ish rejasi kabilar) loyihalarini ishlab chiqish.<br>3. Kengashni belgilangan tartibda tuzishga hamda faoliyatini samarali yo’lga qo’yishga ko’maklashish. | yanvar-fevral<br><br>mart |
| 102. | Mahallalarda uy bekalari va qizlar, shu jumladan, o’quvchi qizlar o’rtasida **“Ma’rifatparvar ayollarning ibratli hayot yo’li”** mavzusida targ’ibot tadbirlarini o’tkazish.<br>1. “Ma’rifatparvar ayollarning ibratli hayot yo’li” nomli kitob loyihasiga qo’yiladigan talablarni ishlab chiqish.<br>2. Tuman (shahar) tashkiliy qo’mitalari tomonidan:<br>– mahallalardagi ma’rifatparvar ayollarning ro’yxatini shakllantirish va ularning ibratli hayot yo’lini o’rganish;<br>– o’rganish natijalari bo’yicha respublika tashkiliy qo’mitasi tasdiqlagan talablar asosida tuman (shahar)dagi “Ma’rifatparvar ayollarning ibratli hayot yo’li” nomli kitobni tayyorlash va chop etish.<br>3. Har bir mahallada uy bekalari va qizlar, ta’lim muassasalarida o’quvchi qizlar o’rtasida “Ma’rifatparvar ayollarning ibratli hayot yo’li” mavzusi bo’yicha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o’tkazish.<br>4. Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish. | yanvar<br><br>yanvar<br><br>fevral- mart<br>mart oyidan boshlab<br>reja asosida |
| 103. | Mahallalarda **“Buvijonlar ma’rifati”** mavzusida ma’naviy tadbirlarni tashkil etish.<br>1. Mahallalarda ushbu tadbirni o’tkazish bo’yicha uslubiy tavsiyalar va tuman (shahar)ning namunaviy reja-grafigi loyihasini ishlab chiqish, hamda ularni hududlardagi mas’ullarga yetkazish.<br>2. Har bir mahallada reja-grafik asosida sohalar kesimida jonkuyar nuroniy onaxonlar ishtirokida quyidagi mavzularda ochiq muloqotlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar o’tkazish:<br>– “Keksa shifokor — millat sog’lig’iga madadkor” mavzusida yoshi ulug’ shifokorlar;<br>– “Adolat tarozisini mahkam tutib” mavzusida nafaqada bo’lgan huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari;<br>– “Go’zal yurtim imoratlari poydevorining egasi” mavzusida quruvchi-ayollarning keksa avlodi vakillari;<br>– “Ko’zga surtgum ustoz bosgan tuproqlarni” mavzusida nafaqadagi ustoz pedagoglar va o’quvchilar;<br>– “Ilmi ummon sharafiga sazovorlar” mavzusida ilmiy-tadqiqot muassasalarida uzoq yillar davomida ishlab kelayotgan, nafaqaga chiqqan akademik, professor, siyosatchi, olima, dirijyor, muhandis, bastakor, rassom, faxriy o’qituvchi va boshqalar.<br>3. Tadbirlarga uy bekalarini va ta’lim muas-sasalarining o’quvchi-qizlarini jalb etish.<br>4. Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish. | yanvar-fevral<br><br>mart oyidan boshlab<br>reja asosida<br><br>Reja asosida |
